



Keling, birgalikda ko'chat ekib, bog' yarataylik!

ILM OLMOQQA INTILISH – HAR BIR MUSLIM VA MUSLIMA UCHUN FARZDIR



Muruvvat va g'amxo'rlik emas, faqat adolatgina inson ehtiyojini qondirib, uning ko'ngliga taskin bera oladi.



ZIYO CHASHMASI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI GAZETASI

25.11.2021 № 9 (294) ISSN-2010-9393 ziyo-chashmasi@umail.uz 1993-yil 21-martdan chiqa boshlagan



INSTITUT HAYOTIDAN

Jizzax davlat pedagogika institutining O'zbekiston Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotiga Navro'zbek Toshtemirov yetakchi etib tayinlandi.

Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadbiri instituti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor ochib berdi. U o'z so'zida bugun oliygohda jamoat ishlarida faollik ko'rsatayotgan bir guruh talabalarni ta'kidlash bilan bir qatorda, jamiyatimizda



bugungi yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor va imkoniyatlar haqida to'xtaldi. Tadbir yakunida O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Jizzax viloyati kengashi raisi Navro'zbek Toshtemirovga Ishonch yorlig'ini topshirdi.

Institutimiz bo'ylab "Yashil makon" ezgu tashabbusi davom etmoqda. "Keling, ko'chat ekib, bog' yarataylik" shiori ostida uyushtirilayotgan tadbirlar davomidan oliygohimiz hududlariga mevali va manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazilmoqda.



"MOTIVATSIYA BEKATIDA" RAHBARLAR VA YOSHLAR UCHRASHUVI O'TKAZILDI

Tadbirida Davlat xizmatlari agentligi rahbari hamda Adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari ishtirok etishdi. Talabalar bilan uchrashuv avvalida mehmonlar institut rektori Sh.Sharipov boshchiligida "Talabalar do'stligi uchun" deb nomlangan bannerga o'z dil izhorlarini yozib qoldirishdi. Shundan so'ng "Yashil makon" loyihasi doirasida institut hovlisiga ramziy ko'chatlar ekildi.

IS GAZIDAN OGOH BO'LING!

Qish mavsumida yurtimizning turli hududlarida is gazidan zaharlanish holatlari qayd etilmoqda. Is gazi nima? Undan qanday saqlanish mumkin? Qish arafasida xonadonlarda qanday ehtiyot choralarini ko'rilishi kerak? Institutimizda o'tkazilgan tadbirlarda shu savollarga mutaxassislar tomonidan javoblar berildi.

Tadbirlarda "Hududgaz Jizzax" gaz ta'minoti filiali xodimlari talabalarga yashash sharoitida ehtiyotkorlik choralarini ko'rish lozimligi xususida tushuntirishlar berishdi.

Viloyat hokimligi tashabbusi bilan 17-noyabr — "Xalqaro talabalar kuni"ga bag'ishlab "Yangi O'zbekiston talabalari, birlashaylik" shiori ostida "ZAKOVAT" intellektual o'yini o'tkazildi.

Jizzax politexnika instituti, O'zMU Jizzax filiali, "Sambhram" universiteti hamda institutimiz vakillari ishtirokida tashkil etilgan tadbirida talabalarimizning "RENESSANS" jamoasi birinchi o'ringa loyiq deb topildi.



Shahrimizdagi Innovatsiya markazida talaba qizlarning "Jizzax 2021" liboslar kolleksiyasi namoyish etildi. Ko'rgazmada institutimizning Fizika va texnologik ta'lim fakulteti, Tasviriy san'at yo'nalishi talaba-qizlari ishtirok etishdi.

Yorqin ranglar, did bilan yaratilgan liboslar barchaning e'tiborini tortdi. Ayniqsa, zamonaviy uslub bilan uyg'unlashtirilgan milliy liboslarimiz kolleksiyasi barchani hayratga soldi. Tadbir yakunida eng yaxshi deb loyiq topilgan liboslar mualliflariga esdalik sovg'alari va diplomlar topshirildi.



Institutimizda Davlatimiz bayrog'ining qabul qilinganiga 30 yil to'lgani munosabati bilan barcha fakultetlarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. Mazkur tadbirlarda bayrog'imizni madh etuvchi kuy va qo'shiqlar yangradi.



Boshlang'ich ta'lim fakulteti "tashabbusi bilan 17-noyabr — Xalqaro talabalar kuni" munosabati bilan "Yangi O'zbekiston talabalari, birlashaylik!" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Tadbirida fakultetning professor-o'qituvchilari badiiy chiqishlari bilan ishtirok etishdi.



"Tyutorlik faoliyati joriy etilishi maqsadi va yo'nalishlari" mavzusida seminar-trening tashkil etildi. Tyutor — talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, institut, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, shuningdek, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishiga ko'maklashuvchi inson bo'lib, u yigit-qizlarni kasbga yo'naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to'garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarini o'rganib, ularga atroflicha yechim topish bilan shug'ullanadi.

Tyutorlar faoliyatiga bag'ishlangan seminar-treningda institut rektori Sh.S.Sharipov "Tyutor aslida kim?", degan savolga javob berish bilan bir qatorda uning faoliyati, vazifalari haqida ham tushuncha berib o'tdi.



AKOBIR, YUTUQLARING BARDAVOM BO'LSIN!

Ko'pchilik talabalar Jeet kune do sport turi haqida eshitmagan bo'lsa kerak. Ushbu sport turiga afsonaviy sport ustasi, kinoaktyor Bryus Li asos solgan. Mazkur sport turi bugungi kundagi aralash jang san'atining yaratilishiga ham turtki bo'lgan. Jeet kune do o'zimizning tilga "Yetakchi mushtning yo'li" deb tarjima qilinadi.

Jang qoidalarini oddiygina: raqibni qo'l va oyoqlarni ishlatgan holda mag'lubiyatga uchratishdir. Shuningdek, bu sport turining o'ziga xos falsafasi mavjud. Ya'ni jang paytida odamning qo'rquvi va ishonchsizligi haqiqiy dushmanga aylanadi. Bunday paytda g'alaba qozonishning asosiy yechimi inson o'zini yengishidir.

Bugungi kunda bu sport turi

bilan talabalarimiz ham shug'ullanib kelishmoqda. Quvonarlisi, ular orasida xalqaro musobaqalar g'oliblari ham bor. Qahramonimiz Akobir Ashuraliyev Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi. Viloyatimizda o'tkazilgan Jeet kune do sporti bo'yicha xalqaro musobaqa sovrindori. Uning bu sport turiga bo'lgan qiziqishi yoshligidan boshlangan.

— Sportdagi ildam qadamlar



rimda ustozlarimning o'rni beqiyos, — deydi Akobir. Ayniqsa, musobaqalar avvalida ustozlarim Anvar Hasanov va Aziz Komilovlarning o'g'itlariga qattiq amal qilaman.

Xullas, shijoatkor sportchilarimizning yutuqlari ko'payaversin. Akobirga o'xshagan yigitlarimiz Vatanimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarishdan charchashmasin!

Mirjalol MAMATOV,
"Ziyo chashmasi" muxbiri

INTILGANGA TOLE YOR!

Ustoz — otang kabi ulug'. Albatta, bu xalqimiz tomonidan bejiz aytilmagan. U ota kabi sizni koyiydi, yiqilsangiz yordam qo'lini cho'zadi. Ustoz yaralibdik, mehr-u ilmga yo'g'rilgan ziyosi ila shogird yo'llarini yoritadi. Yuksak marralarni zabt etishda ko'mak beradi. Shogirdi erishgan yutuqlarni o'z yutug'idek qabul qilib shodlanadi. Shunday qalbi daryo insonlardan biri — Muslim Abilov ustozdir.

USTOZLAR MEHNATI SHOGIRD E'TIBORIDA

Ustoz o'zining ijodiy va pedagogik faoliyatlari mobaynida ko'plab yutuqlarga erishgan. Ustozim abiturientlik chog'larimdan o'qimagan qimmatli vaqtlarini ayamasdan saboq berganlar. Ushbu mehnatlarimning samarasi o'laroq 2018-2019- o'quv yilida musiqiy ta'lim yo'nalishi talabasi bo'ldim.

Bunday omadi kulg'agan shogirdlar u kishida juda ko'p. Ustoz talabalarining ijod qirralarini kashf etishda shunday mohirona yo'ldan foydalanadilarki, yuraklarning tub-tubida mudrab yotgan ijodiy xayolotlarga qayta jon kiritishlari tahsinga sazovor. Kafedramiz qoshida tashkil

etilgan "O'zbek xalq cholg'ulari ansambli" rahbari va hozirda "Musiqiy ta'lim yo'nalishi" kafedrasida



mudiri sifatida faoliyat olib bormoqdalar. Ustozimizga xalq xizmatidan tolmasliklarini tilab qolaman.

Charos MAMATQULOVA,
musiqa madaniyati fakulteti talabasi.



TELEFONGA "KISHANLANGAN" QO'LLAR

VAQTINI ISROF QILAYOTGANLAR DIQQATIGA!

Vaqt — insonga berilgan ne'matlar ichida eng qadrlisidir. Uni qanday o'tkazmoq, har onni nimalarga sarflamoq o'z ixtiyorimizda. Telefondan foydalanish alohida e'tiborga molik. Internet shu qadar shiddat bilan kirib keldiki, bugungi kunda undan eng ko'p mobil telefon orqali foydalanilib, foydalanuvchilar orasida hatto, voyaga yetmagan o'smirlarning ham borligi qaysidir jihatdan insonni tashvishga soladi. Ochiq'ini aytganda bugun qo'lida telefoni bo'lgan yoshgina bolani ko'rib hech kim lol qolgani yo'q, bu hol deyarli oddiy holga aylanib bo'ldi.

Hatto, mana shu vositalar orqali tanilgan "yulduzga aylangan" yoshlarimiz bor. Bunda dastlabki vazifamiz — ta'lim olishni unutilib qo'yarmoqdamiz. Shu o'rinda texnika vositalarining ham foydali tomonlari talaygina ekanini aytish joiz. O'z faoliyatimizga doir kerakli ma'lumot bilan tanishamiz, keyingi kun ob-havosini bilsak bo'ladi va boshqa

ko'plab ijobiy tomonlarga ham ega.

Ammo barcha narsani o'z o'rnida ishlata bilishimizni taqozo etadi. Aniqroq aytganda esa biz yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlarga shunchaki befarq qolib bo'lmaydi, ulardan unumli va samarali foydalanmog'imiz kerak. Bu shart-sharoitlar shubhasiz, biz yoshlarning chuqur bilim oli-

shimiz, har tomonlama salohiyatli shaxs bo'lib yetishishimiz uchun yaratilgan. Bizga ma'lumki, bizning buyuk ajdodlarimiz yashagan davrda ularning hayotida bunday vositalar, xususan, telefonlar bo'lmagan.

Biroq, ularning yashash tarzi, faoliyatlari bugungi kun yoshlariga o'rnak qilgulik. Hozirgi kunda, nadomatlar bo'lsinkim, o'zini telefonsiz tasavvur qila olmaydigan, shu orqali butun hayoti buzilib ketayotgan, umuman olganda, aynan, shu telefon sabab "manqurt"ga aylangan yoshlarimiz talaygina. Kun sayin internet foydalanuvchilarining soni ortsa ortdiki, kamaygani yo'q. Yurtimiz ham texnika vositalaridan, aynan, mobil

telefon orqali foydalanish borasida shiddat bilan rivojlanayotgan davlatlar qatoridan joy oldi.

Shu o'rinda savol paydo bo'lishi tabiiy: aslida bugungi kun yoshlari kelajak avlod uchun ibrat bo'lishi kerak emasmi? Biz o'z vazifalarimizni unutilib qo'yamaymizmi? Qilayotgan ishlarimiz qay darajada to'g'ri? Bu hol takrorlanaversa, Prezidentimiz biz yoshlardan qilgan ulkan umidlari natijasi nima kechadi, qolaversa, ulug' va betakror Vatanimiz oldidagi burchimiz, vazifamizni qachon ado etamiz? Axir, butun yurt kelajagi yoshlar, siz-u bizning qo'limizda-ku! Atrofimiz imkoniyatlarga to'la, bizdan faqat harakat kerak, xolos. Bu esa bizning har bir bajarmoqchi bo'lgan ishimizga hamda oldimizga qo'ygan maqsadimizga yuksak mas'uliyat bilan yondashishimiz kerakligidan dalolat.

Olimlarning fikriga ko'ra, vaqtning qadriga yetgan, har lahzadan unumli foydalanigan insonning natija kutish mumkin. Mustaqil O'zbekistonimizning go'zal va betakror kelajagi uchun o'z hissamizni qo'shaylik, mana shu obod va ozod Vatanga munosib o'g'il-u qiz bo'laylik, aziz yoshlar!

Mohidil ESHQULOVA,
boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi.

Har bir faslning o'ziga xos tarovati, ko'rki, o'zgachaligi bor. Qish o'zining kumush qori bilan, bahor o'zining maysasi-yu, oftobi bilan, yoz-sarxil mevalari-yu, sharqiroq soyi bilan, kuz esa o'zining hech narsaga alishtirib bo'lmagan oltin tusi, betakror tabiati-yu, yoqimli ob-havosi bilan ajralib turadi.

KUZ XAYOLLARI

Kuz — tabiatni butunlay o'zgacha ko'rinish kasb etishiga sababchi bo'lgan, o'zining serjilo va beqiyos manzarasi bilan har bir insonni maftun eta oladigan, sirli o'ylar dengiziga cho'mdiradigan tilla fasl. Ko'pchilik ongida kuz "zerikarli, g'amgin" fasl sifatida gavdalanadi. Fasldagi daraxtlarning barg to'kishi, qushlarning uzoq mamlakatlarga parvoz etib ketishi, hayvonlarning qish uyqusiga tayyorgarlik ko'rishi kabi bir qancha omillar bunga sabab bo'lsa ajabmas. Lekin har bir narsaning ham yaxshi, ham yomon tomoni bo'lganidek,



tabiat qonunlari ham o'zining ijobiy tomonlarining serobligini ko'rsatadi. Ya'ni, daraxtlar barg to'kkan bilan erta bahorda yana o'zining yashil barglarini chiqaradi,

pushti gullarini ochadi, qushlar uchib ketgani bilan yana uchib kelishadi. Shuning uchun ham bahorni yangilanish, kuzni esa yakunlanish fasli deyishar...

Kuz ob-havosi ham almashtiruvchan

va juda "qaysar". Nega? Chunki havo tongda ochiq va quyoshli bo'lsa, tushga yaqin bulutlar yig'ilib sharros yomg'ir yog'adi. Shuning uchun kuzda soyabonsiz

yurmang deyishadi. Aynan, uning mana shunday tabiati ham insonga uning kayfiyatining ko'tarilishiga sababchi bo'ladi. Turli kutilmagan holatlar: yomg'irda soyabonsiz qolib ketish kabilar inson hayotini unutilmas, esda qolarli va go'zal xotiralar bilan bezaydi. O'lkamizda oltin kuz o'z sepini yoygan ayni pallada yurtimiz juda chiroyli ko'rinish kasb etgan. Sokin oqayotgan soylar, teraklarning shabboda shitirlatayotgan barglari, tabiat ovozi bularning bari kuzning tarovati demakdir. Har bir fasl o'zining jozibasiga ega. Fasllar ta'rifini aytmoq uchun tili-mizdagi jamiyki so'zlar ham yetmaydi. Qaysi fasl bo'lishidan qat'iy nazar har bir onimizni bahorning quvnoqligi, qishning pokligi, yozning go'zalligi, saxiyligi va kuzning sehrli tarovati bezasin. Oltining so'ng-gacha to'kavergin kuz....

Shaho BOBOXONOVA,
boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi.



Past time a king said to a person named Jiyrancha skilled.

-Is there stronger man than me in the world?

Jiyrancha said:

-Oh, respected person, there is stronger man than you in the world. I find you that person.

The king:

-No, you cannot find. There is not great man than me in the world. I kill and put in dungeon man who I want -said.

That time Jiyrancha skilled brought king's little son. The son said to his father:

-Dad, I want to drink water!

The king brought water. Jiyrancha skilled sat, laughing. Then the son said:

-Dad, give me some milk!"

They brought some milk too. Then son:

-Dad, join them! - said. King joined them. The son:

-Dad, dis join them!-said. The King said angry:

-How can do I?

The son cried, pestered. Jiyrancha skilled looked at the king. King:

-Really, I'm not great, my son is great, that is child is the king, -said.

Moral of the story:

Really, the child is the king. Even kings can't make them sad.

Child-king

o'zbek tilidan ingliz tiliga
Zomin tumani
45-maktabning
9-sinf o'quvchisi
Dilrabo MAVLONOVA
tarjima qildi.

DIL DAFTARIDAN SATRLAR

SHERLARIM

O'rmondek keng, mavhum dilim ichida,
Tug'ilgan sherlarim! Ulg'aying endi.
O'kiring! Har tortgan na'ra kuchidan,
Isyonkor shoqollar ovozi tindi.

Chang soling toptalgan taxtingiz tomon,
Kimligin unutgan yirtqich qarollar.
Yuragi yorilsin, qolmasin omon,
Fosiq tulklar-u isqirt shoqollar.

Sher bo'ling! O'rmonim podshosi bo'ling,
Yashang, mag'rur yuring jo'mard erdayin.
Ulg'aying, ulg'aying, quvvatga to'ling,
Nazm maydoniga tushing sherdayin.

Maydonni titrating.
Axir bu maydon,
Ne ne qilmishlarni ko'rib o'rtangan.
Yo tavba! Maydonda mushuklar giryon,
Qanday kuchli sherlar qo'lga o'rgangan?!

Zo'rlarning zo'rini ko'rgan bu maydon,
Tomoshaxonaga aylanib qoldi.
Bas! Yetar! Davrada bo'linglar paydo
Nayrangboz, lo'ttiboz sherlar yo'qolsin!

Sherpanjangiz bilan ezg'ilay boshlang,
Sherlikka da'vogar mushukchalarni.
Hayoti kerakmas burdalab tashlang,
Qo'lga o'rgatilgan sherning barini.

So'ngra halol yashang, o'sha maydonda,
Mardga mard, sherga sher bo'lib yashanglar.
Mushuk yo ovchilar kelsa shul onda,
Sog' qo'ymang, iltimos, g'ajib tashlanglar.

Zanjirmas, ozodlik yarashar sizga,
Ozod yashang mangu davrlar osha...
Sher bo'lish ozodlik yaratar sizga,
Sher bo'lib tug'ilib, sher bo'lib yashang.



NIGOH TASHLADING

Kecha nigoh tashladim,
Men tomonga bilmayin.
Kuydirilgan kalladek,
Turar edim jilmayib.

Yodimga muhrlangan,
Qanday tanishganimiz.
Qoldi vaqtlar qatida,
Qilgan g'o'r ishlarimiz.

Bugun to'qnash kelganda,
Til so'zlolmas bir mayib.
Kuydurilgan yuragim,
Qo'yar asta jilmayib!

Ismoil HASANOV,
rus tili va adabiyoti
fakulteti talabasi.

TIRILGAN QUYON HAQIDA BALLADA

"O'lib tirilgan quyonni ko'rganmisiz?"
(Rahim Bekniyoz)

Men ko'rganman o'sha quyonni.
O'zini solar o'lganga.
Yo'q.

U rostanam o'lgandi, axir,
Ko'milgandi qo'r'oqoq hislarga.
Shalpang quloqlarin kiftiga bosib,
Yotar edi ariq ichida.
Dag'-dag' titrab,
O'z-o'zining ko'lankasidan.
Rosa sovuq edi tanasi,
Zaharli ilonlar chaqqandek.

Ich-ichidan chiqayotgan savol,
Xuddi o'qdek tegar nishonga...
Ko'm-ko'k, muzlayotgan yurakka.
"Balo bormidi, axir?
O'zgalarning bog'ida? Qo'r'qsa".
O'ylab qarasa, u o'lyapti nega?
Tayyor o'lja ovchilar uchun.

Indamasdan o'lish mumkinmi?!
Butun borliq ochqagan paytda..?
Va tirila boshladi quyon,
Qorong'u tun. Uvlay boshladi.
Xuddi bo'rilar kabi...
Sukunatni yirtib tashladi.

Shunday dedi dadil va o'ktam:
"Quyvon bo'lish harkimgayammas!"
Tongni yorgan quyoshdek chiqdi,
Bu so'zlari zulmat qaridan.
Zamin qo'r'qinch bergan edi-yu,
So'ngra o'zi qo'r'qa boshladi...

"Sabzidayin chaynab tashlayman!"
Bilmam hozir quyvonmi, yo'qmi?
Men ko'rganman o'sha quyonni!



HAZILGA YO'YILGAN SHE'R

"Oftob chiqdi olamga,
Yugurib bordim xolamga"
(Xalq og'zaki ijodi)

Oftob chiqdi olamga,
Yugurib bordim xolamga.
Xola, xola qizing ber,
Xolam aytdi, toshing ter.
Mahallaga bosh xolam,
Bag'ri toshdan-tosh xolam.

Qizg'onmagil qizingni,
Eshitgin dilda nolam.
Bo'y yetgan qiz seniki,
Lek, yuragi meniki.
Agar menga bermasang,
Bo'lmaydi hech kimniki.

Aytgin o'tin yoraymi?
Yo ko'kni ag'daraymi?
Qizing ko'nglin so'rovdim,
Hol-ahvoling so'raymi?
Faqat toshing ter dema,
Faqat yoshing ter dema.
Men ulg'aydim, xolajon
Bulutni ema-ema.

Xolam deb yaqin oldim,
Guldirak, chaqin oldim.
G'irt o'jar va erkatoy,
Qizingning gapin oldim.
Bo'y yetgan qiz seniki,
Lek yuragi meniki.

Agar menga bermasang,
Bo'lmaydi hech kimniki!
Oftob chiqdi olamga,
Yugurib bordim xolamga...

Umidjon QODIROV,
boshlang'ich ta'lim
fakulteti talabasi.

QALBIM BAHORI

Oshiq-moshiqlarga begona ayoz,
Chinakam sevgidir, ezgu hissiyot.
Sevgan odamingga yolg'on gapirma,
Uning qalbi balki, toladek sayoz.

Bir boqishda ochildi muhabbat guli,
Men bedavo bu gulning asiri, bulbuli.
Gulimning siymosi olamda tanho,
Bormikin bu gulni uzishning yo'li.

Jo'rabek ERGASHOV,
o'zbek tili va adabiyoti fakulteti
talabasi.

KECHIR

O'ksindi hislaring, o'kindi ko'ngling,
Umidlaring sindi, tuyg'ular qarib.
Eh, nega bir mendek xudbinni suyding,
Dunyodan muhabbat-mehr axtarib.

Endi sen jim turma, meni jazola,
G'amlarni aritgin qarashlaringdan.
Yomg'irlaring bo'ldim ko'zingdan oqqan,
Yig'lagin to'kilay... ko'zyoshlaringdan...

Abduazim BAXTIYOR,
o'zbek tili va adabiyoti
fakulteti talabasi.

MAMA - МОЙ РАЙ!

Я встретила люде, с пустыми словами
С простыми обещаниями, с разными чувствами
Я встретила столько людей, мам
Поверь, никто из них не сравнится с тобой

Мне не нужны ни богатства, ни друзья
Ни чувства, ни эти деньги
Мне не нужны ни радости без тебя
Только ты являешься оживляющей меня!

Мам знай, ты мой РАЙ
Мама знай, ты мой КРАЙ
Мама знай, ты навсегда любима
Мама знай, ты для меня самая единая

Я отдам тебе всю себя
Я отдам тебе целый мир
Ты только будь любима и жива
Мой вдох и улыбка являешься - Ты!

Дай Бог тебе долгой жизни
Желаю море счастье и улыбки
Никогда не знай ни горя, ни грусти
Чтобы всегда была здорова, молюсь от всей Души!

Севинч НОРКУЛОВА,
рус тили ва адабиёти факультети талабаси.



ARAZ

Sodda dilim bugun sizdan,
Og'rinadi birozgina.
Eshigimda qolgan izdan,
Araz qildim men sozgina.

Torlik qildi menga xonam,
Aylanmasman tashqarida.
Chunki izdan tutib olsam,
Nima qolar xotiramda.

Kutib yashab, bo'ldim ilhaq,
Kelmaysizmi bir bor yo'qlab?
Ozorlanay, lekin men haq,
Ko'rmadizmi ozroq o'ylab.

Achchiq qilay ayting kimga?
Devorlar ham bo'ldi bezor.
Kirib keling siz ko'nglimga,
Uyim bo'lsin xuddi bozor...

Go'zal XUDOYBERDIYEVA,
boshlang'ich ta'lim
fakulteti talabasi.

MILLAT KO'ZGUSI

Til — bu millat ko'zgusi derlar,
Tilsiz hayot nedir, aslida.
Til bilganni — el bilat, derlar,
Til — bu millat sha'ni aslida.

Tilsiz millat nimadir, aytgin,
Tilsiz hayot go'zalmas, asli.
Tilning nomi asardadir, bilgin,
Tilsiz asar asarmasdir, asli.

Shahzod ERNAZAROV,
maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy
til yo'nalishi talabasi.

YOMG'IR

Qani doim musaffo yomg'ir,
Tomim uzra shitirlab tursa.
Unutirib, dard- tashvishlarni,
Baxt haqida shivirlab tursa.

Qani edi gullarnikidek,
Qablarning ham gardlarin yuvsa,
Ruhimizga orom berish-chun
Yomg'ir shitir-shitirlab tursa...

Qani qalam, oq qog'ozing va
Finjon to'la bir qahvang bo'lsa,
O'zidek sof ilhomni berib,
Yomg'ir shitir-shitirlab tursa.

Kezib yursam yomg'ir ostida,
Tomchilari yuzimga ursa.
Nelarnidir esga soluvchi.
Ajib ifor taralib tursa...

Sarvinoz ABDUMAJIDOVA,
o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi.



Abituriyentlar "talaba bo'lsam ko'p kitoblar o'qiyman, har oy bitta kitob olib o'zimgin kutubxonamni yarataman, tanlagan sohamning ustasi bo'laman, o'zimgin sevimli kasbim bo'ladi, hayotim tubdan o'zgaradi" deya xayol qilishadi.

"SUPER" TALABALAR ULARNING BILIMI QONIQLARIMI?

Bunday xayol surmasdan, qo'shimcha qabul bilan o'qishga kirganlar ham bor. Endilikda ular bilimlarini mustahkamlash uchun ko'proq o'qishlari kerak. Insof-sizlari o'qimasdan hammaga boshog'riq bo'ladi.

Buni qarangi, o'z kuchi bilan, hatto byudjet asosida qabul qilinganlarning ham ikki toifasi bo'lar ekan. Bulardan birinchisi shunchaki chindan ham bilimli, o'zini hurmat qiladigan, o'zini hurmat qilgani uchun boshqalar ham uni e'zozlaydi, o'tkir zehni ila tengqurlari orasida mashhur bo'ladi. Bunday talabalar chindan ham yurtning ertasi.

Ikkinchisi esa, "grant kirdim", deb o'qimay qo'yadiganlar xilidan. Ular o'zini shartnomada tahsil olayotganlardan "zo'rman" deb o'ylaydi. Yaqinda guruhimizdagi davlat byudjeti va to'lov-shartnoma asosida o'qiydigan qizlarning suhbatini eshitib qoldim:

— Eshitdingizmi, plastik kartani bankdan ochtirishimiz kerak ekan.

— Stipendiyani olish uchunmi?



— Haa! Voy siz kontrakt o'qirdingiz-a, uzr, yarangizni yangilab qo'ydim.

Umuman olganda, shu suhbatdagi grant talabadan ko'ra, kontraktida o'qiydigan talaba qizning bilimi yaxshiroq edi.


Aslida mavzumiz qo'shimcha (super) kontraktida o'qiydiganlar haqida. Boshida qizishib oldik. Ularni ham sharti ikki guruhga bo'lsak:

Birinci guruhdagilar: ular talaba bo'lishiga 4 ballgacha yetmagan bo'lishi mumkin va ularning ota-onalari yana bir yilni farzandlari qiyalib qo'shimcha darslarga borishini istamaydi, jigarbandining o'zi tengildan ortda qolib, ko'ngli o'ksimasligini xohlashadi. Ularga "bir tomchi" omad yetishmagan bo'ladi. Bunday o'quvchilar yaxshi natijali bo'lishadi, ya'ni biron ishga borishsa, ularga ta'lim bergan OTMni uyaltirmaydi. Shartnomada o'qiydiganlar ham ular bilan apoq-chapoq bo'lib ketishadi

Ikkinchi guruhdagilar: umuman o'qimagan, repititorga "xo'jako'r-singa" borgan, buning ustiga burni ko'tarilgan, maqtanchoq, ust-boshingga qarab muomaila qiladigan, qisqasi, otasi-ning puliga ishongan "erkatoylar"dir. Yetmaganiga qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'lariga "kontrakt kirdim" deb qo'yadi. Bundaylar dom-lalarning "o'gay bolalar"i bo'ladi. O'z bilmi bilan kirgan talabalar ham "erkatoylar"ni yoqtirmaydi.

Xullas, oliyogha qadam qo'ygan talabaning birinchi maqsadi ilm olish bo'lishi kerak. "Super" bo'lib o'qishga kirganmi u, shartnoma yoki grant o'qiydimi — hammasi ustozlariga ergashsin. To'rt yillik ta'lim ko'z ochib yumguncha o'tib ketadi

**Shahzoda JALOLIDDINOVA,
o'zbek tili va adabiyoti
fakulteti talabasi.**



"IELTS"IM YO'Q! MAGISTR

Yurtimizda yoshlarni xorijiy tillarni o'rganishiga bo'lgan e'tibor oshib bormoqda. Chet tillarini o'rgatamiz, deb har xil qonunlar qabul qilinayapti. Tilni bilish o'zi bizga nima uchun kerak? Sayohatga chiqish, tarjimonlik qilish, yaxshi ishlarda ishlash kabi daromadli kasblar uchun kerak. "Bizda ingliz tilini biladiganlar boshqa davlatlardan kam ekan" deb, boshqa davlatlarda ingliz tilida bizdan ko'ra ko'p gaplashishar ekan deb, hashshakalla, magistraturaga topshirayotganlardan "IELTS" so'rash xato fikr, menimcha.

Avvalo, bir tilni bilish darajasi bo'yicha bizdan oldinda bo'lgan davlatlarda yaratilgan sharoitlarni o'zimizda ham yaratilgan va o'sha davlatlardagi maktablarda ishlayotgan ingliz tili o'qituvchilarining bilim darajasini solishtiraylik. Yuqoridagi shu ikkalasi to'g'ri kelsa, magistraturaga kirayotganlardan "IELTS" so'rash to'g'ri bo'lardi.

Chekka qishloqlardagi maktab sharoitlari bilan ham qiziqib ko'rishingizni so'rab qolgan bo'lardim. U yerdagi kamchiliklarni aytсам, bu maqola emas romanga aylanib qoladi. Ba'zi maktablarda ingliz tili o'qituvchisi yetishmaydi, yetishganda ham ko'pchilik o'qituvchilarning bilimi yaxshi emas.

Shu o'rinda aytishingiz mumkin, tayyorlov kursiga borib o'rgansa bo'ladi-

ku, deb. Bola til o'rganaman deb tayyorlov kursiga borsa, unda o'n bir yillik ta'limni nima keragi bor?

Magistraturaga kirayotgan talabalardan "IELTS" so'rashni hozircha bekor qilish va tepada sanab o'tilgan kamchiliklarni to'g'rilash kerak deb o'ylayman. Magistraturaga kirayotganlardan ko'pchilik yoshlar bilmaydigan ona tilini so'rasangiz yaxshi bo'lardi.

Aytishingiz mumkin, sharoitlarimizdan noliyapti, deb. Muhtaram Prezidentimiz: "Shu paytgacha biz chapak chaldik, endi kamchiliklarni to'g'rilash vaqti keldi", degan edi. Ushbu fikrlardan kelib chiqib o'z qarashlarimni bildirdim.

**Mirjalol HAMIDOV,
o'zbek tili va adabiyoti
fakulteti talabasi.**

O'QISHNI BITIRISHING BOR...

**yoxud muammo muammoligicha qolishi uchun
"qayg'urayotganlar" e'tiboriga!**



Doston oliyogha o'tkazilgan tanlovda birinchi o'rinni oldi. U endi viloyatlararo bo'lib o'tdigan musobaqada ishtirok etishi kerak. Ammo negadir uning o'rniga tanlovga boshqa kishi olib ketildi. Tabiiyki, bu borada Dostonda bir qancha savollar tug'ildi. Nega tanlovda qolib ketdim? O'rnimga musobaqaga kimni olib ketishdi?

Doston shu savollariga javob topganida xafsalasi pir bo'ldi. Ma'lum bo'lishicha, tanlovga shu yerda ishlovchi rahbarning jiyani olib ketilgan ekan. U nohaqlikka chiday olmadi. Vaziyat yuzasidan bir qancha yuqori turuvchi tashkilotga shikoyat qildi. Ammo ko'p vaqt o'tsada, javob bo'lmadi.

Kunlarning birida kechasi qo'l telefoni jiringladi. Guruh sardori ekan:

— Doston nimalar qilib yuribsan? Kimga shikoyat qilding? Guruh rahbarimiz gap eshitibdi. Ertaga darsga borsang bu haqida gaplasharmiz. Muammo faqat senda bormidi?

Suhbat shu bilan tugadi.

Ertasi kuni guruh rahbari bilan muloqot asabiy bo'ldi. Shundan keyin u dekanatga chaqirildi.

— Qarshiboyev kimlargadir ustimizdan

suqaverma", degan gaplar qulog'iga kirdi.

Shunday qilib, ikkinchi kun ham Dostonni "kattalar" so'rashdi.

— Bilasizmi, janob Qarshiboyev ilmingizni hurmat qilamiz. Sizga nisbatan adolatsizlik ham bo'lganidan xabarimiz bor. Shunday bo'lsa-da, qilgan ishingiz xato bo'libdi. Axir, barchamiz shu tashkilotning vakillarimiz. Obro'-e'tibori, imidji hammamiz uchun ham muhim bo'lishi kerak. Shunday ekan, o'zimizdagi muammolarni ko'chaga olib chiqish esli-xushli kishilarga to'g'ri kelmaydi.

Doston negadir bu gaplarni, o'ziga ko'rsatayotgan iliq muomilani eshitib shikoyatidan pushaymon bo'lgandek bo'ldi. Eshikdan chiqayotganida esa "teng-doshlarigiz ichida "yozuvchi" degan laqabni orttirib olmag", degan gaplar qulog'iga kirdi.

Shu taxlit haftaning oxirigacha Dostonni "so'raydiganlar" bo'ldi. Dam olish kunlari esa mavzu yuzasidan kursdoshlari bilan gaplashishiga to'g'ri keldi. Har bir muloqotda deyarli bir xil gaplar. Bu mashmashalar tezda tugamadi. Dars vaqtlari ham unga aql o'rgatishardi. Doston uchun hammasi murakkablashib ketdi. Shu taxlit vaqtlar o'tdi.

Kunlarning birida yana bir tanlov tashkil etildi. Doston bu safar ham birinchi o'rinni oldi. Biroq, hakamlar nohaqlik qilishdi. Unga sovrinni berishmadi. Doston endi nima qilsin? Kimga shikoyat qilsin? Esli-hushli kishilar safidan yana chiqsinmi? Uydagi gapni ko'chaga yetaklab, imidj va obro'-e'tiboriga putur yetkazsinmi? Axir yana bir shikoyat qilsa, "yozuvchi" laqabini orttirib olishi tayin. Xullas, oldinda o'qishni bitirishi ham bor...

Abdug'afvor ABDURAHMONOV.

VAQTNI TEJASHNING OLTIN QOIDALARI:

- Vaqtni rejalashtirish;
- Bajariladigan ishlarni qog'ozga tushurish;
- "Vaqt o'g'rilari"ga "yo'q" deyish;
- Oila a'zolariga vaqtni boshqarishni o'rgatish;
- Yakshanba kunini rejalashtirish;
- Ruhimizni tushmaslik.

Agar vaqtni boshqarmasang, uni boy berasan.

Agar vaqtningni o'zing rejalashtirmasang, uni boshqalar rejalashtiradi, sen qul bo'lasan

Vaqt o'zi o'ta noyob, buning ustiga undan unumli foydalana olmasang, hech narsaning, uddasidan chiqolmaysan.

TALABALARGA MASLAHAT



Jizzax davlat pedagogika institutida oliy ma'lumotli, bakalavr, magistr, akademik darajasiga ega pedagog va nopedagoglar uchun qayta tayyorlash kurslari tashkil etilmoqda.

Ushbu kurslarni muvaffaqiyatli bitirgan tinglovchilar uchun Davlat namunasidagi hujjat (diplom) beriladi.

16. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi;

Ta'lim tizimida oliy nopedagog kadrlarni pedagogik qayta tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha:

1. Chet tili (tillari bo'yicha) o'qituvchisi;
2. Matematika o'qituvchisi;
3. Fizika o'qituvchisi;
4. Informatika o'qituvchisi;
5. Biologiya o'qituvchisi;
6. Kimyo o'qituvchisi;
7. Geografiya o'qituvchisi;
8. Texnologiya fani o'qituvchisi;
9. Davlat va huquq asoslari o'qituvchisi;
10. Tarix o'qituvchisi;
11. O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari;

Ushbu kurslarga qabul jarayoni boshlandi. Hujjat topshirmagan bo'lsangiz, shoshiling. Murojaat uchun telefonlar:

+99897-524-09-66; +99890-229-25-33

A. Abdullayev



Ta'lim tizimida oliy pedagogik ma'lumotli kadrlarni turdosh mutaxassislikka kasbiy qayta tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha

1. Umumtalim maktabi psixologlari;
2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari;
3. O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari;
4. Rus tili va adabiyoti (o'zbek va qardosh tili sinflarida) o'qituvchisi;
5. Chet tili (tillari bo'yicha) o'qituvchisi;
6. Matematika o'qituvchisi;
7. Fizika o'qituvchisi;
8. Informatika o'qituvchisi;
9. Biologiya o'qituvchisi;
10. Kimyo o'qituvchisi;
11. Tarix o'qituvchisi;
12. Geografiya o'qituvchisi;
13. Texnologiya fani o'qituvchisi;
14. Tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisi;
15. Musiqa o'qituvchisi;

**MUASSIS:
Abdulla
Qodiriy
nomidagi
Jizzax davlat
pedagogika
institutu**

Mas'ul muharrir: Abdukarim SHARIPOV

Gazeta «Niso Poligraf»
bosmaxonasida A-3 formatida
chop etildi.

Adadi: 4000. Buyurtma
№

Bosishga topshirildi: 24.11.2021 - 16:00

**Bosmaxona
manzili:**

O'rta Chirchiq tumani,
«Mash'al» mahallasi,
Markaz -1.

MANZIL:

Jizzax shahri, Sharof Rashidov shoh ko'chasi
4-uy. Jizzax davlat pedagogika instituti
Ma'naviyat va ma'rifat markazi binosi.

Jizzax viloyat matbuot va axborot
boshqarmasi 2006-yil 26-dekabrda 06-
017 raqami bilan ro'yxatga olingan.
O'yiga bir marta chop etiladi.
Bahosi erkin narxda.

**Bosh muharrir:
Abdug'afvor ABDURAHMONOV**

Musahhihlar: Mirjalol MAMATOV, Shahzoda JALOLIDDINOVA

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy diqqat-e'tiborimizda bo'lgani
sababli muallifga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat fikri sifatida
qabul qilinmasligi kerak. Gazetadan ko'chirib bosish faqat tahririyat
ruxsati bilan amalga oshiriladi.